
Yosh tadbirkorlar soni ortib bormoqda

Navruzaxon Salbayeva 20 yoshda. Besh yildirki, chevarchilik bilan shug'ullanadi. Texnikumni tamomlagach o'z tadbirkorlik faoliyatini boshladi.

Mahallada yangi qurilgan binoning birinchi qavatini ijara asosida olib, ikkita ish o'rni yaratdi. To'rt nafar maktab o'quvchilari dars mashg'ulotlaridan so'ng, chevarchilik sir-asrorlarini o'rganishmoqda.

"Zarbdor" mahalla fuqarolar yig'inida faoliyat olib borayotgan hokim yordamchisi Bekzodjon Xolmirzayev tavsiyasiga ko'ra, 25 mln. so'm miqdorda imtiyozli kredit ajratilib, 4 ta zamonaviy tikuv mashinalari olindi.

Yosh tadbirkor kelinlik liboslari, maktab formalari tikadi hamda qo'l mehnati asosida taqinchoqlar tayyorlamoqda. Navruzaxon kunlik 250 ming so'm atrofida daromad topmoqda.

2023-10-05 12:02:03